E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Jaxon savdo tashkilotiga kirish sharoitida notarif tartibga solish instrumentlarini tartibga solish

Turobov Turobbek Aktam o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Tashqi iqtisodiyot faoliyati

ANNOTATSIYA: Maqolada Jahon Savdo Tashkilotiga kirish va Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari keltirilgan va korib chiqilgan.

KALIT SOZLAR: Jahon Savdo Tashkiloti, mamlakat, qoidalar, savdo, mahsulotlar, xizmatlar, muzokaralar.

Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) (ingilizcha: *World Trade Organization*— 1995-yilda a'zo-davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoni liberallashtish, savdo va siyosiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida tashkil etilgan. JST 1947-yil tuzilgan xalqaro bitim — GATT(ing. General Agreement on Tariffs and Trade)ning davomchisi hisoblanadi.

Xalqaro savdoda tashkilotga a'zo va ishtirokchi mamlakatlar uchun majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalar belgilangan xukumatlararo ko'p tomonlama shartnomalar asosida faoliyat olib boradi. 1995-yilda 1948—94 yillarda ish olib borgan Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (General Agreement on Tarifs and Trade — GATT) negizida tashkil qilingan. BMT tizimiga kiradi. Idorasi Shveysariya Jenevada. JST jahon savdosi qoidalarini ishlab chiqish yo'li bilan davlatlar savdo siyosatiga ta'sir ko'rsatish, savdo munosabatlarini erkinlashtiradigan va qatiy tartib-qoidaga soladigan muzokaralar uchun yig'ilishlar o'tkazish, davlatlararo savdoda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish va b. vazifalarni bajaradi. JSTning oliy organi — barcha a'zo mamlakatlar Vazirlar Konferensiyasi bo'lib, kamida 2 yilda bir marta o'tkaziladi. Joriy ishlarga Bosh kengash (tovarlar savdosi bo'yicha kengash, xizmatlar savdosi bo'yicha kengash, intellektual mulk masalalari bo'yicha kengash), sekretariat, doimiy qo'mitalar rahbarlik qiladi. JST faoliyati a'zo mamlakatlarning o'zaro manfaatlarini turli tadbirlar (asosan boj imtiyozlari, to'siqlari va b.)ni qo'llash bilan himoya qilishga qaratilgan. A'zo mamlakatlar JST talablarini bajarish bilan birga tashkilotning boshqa a'zolariga savdoda mumkin qadar qulaylik berish rejimini (birinchi navbatda boj tariflarini pasaytirish) qo'llaydi, o'z ichki bozorini chet el korporatsiyalari uchun ochiq qilish majburiyatini oladi. 133 mamlakat to'la huqukli a'zo, 30 mamlakat, shu jumladan Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston JST da kuzatuvchi maqomiga ega va 1992—93 yillarda tashkilotga a'zo bo'lish uchun ariza bergan. 2021-yil fevral oyida nigeriyalik iqtisodchi Ngozi Okonjo-Iveala JST bosh direktori etib tayinlangan. Ngozi Okonjo-Iveala tashkilot tarixidagi ilk ayol direktordir.

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari

Notarif usullar - tovar ayirboshlashga ta'sir kilish dastaklarini, ya'ni olib kiriladigan yoki olib chikiladigan maxsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi. Notarif usullar mikdoriy, moliyaviy, yashirin va noiqtisodiy usullarga ajratiladi. Ular ko'prok rivojlanayotgan va xukumat tomonidan protektsionistik iqtisodiy siyosatni talab kiluvchi, bozor tuzilmalari shakllanayotgan utish davri iqtisodiyotli mamlakatlarga xosdir.

Kvotalash yoki kontingentlash

Umuman olganda, boshqa mamlakatlar bilan savdoni davlat tomonidan tartibga solishning notarif usullarining 50 dan ortiq turi mavjud. Ularning ichida eng keng tarqalgani kvotalardir. Agar tarifli usullar aniq bir tovar guruhi bo'yicha eksport yoki import hajmi masalasini ochiq qoldirsa, kvotalar olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulotning qiymat yoki miqdoriy hajmini to'g'ridan to'g'ri cheklash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Import kvotalarini joriy qilishda davlat milliy ishlab chiqaruvchilarga xorijiy raqobat ta'sirini bartaraf qilishga intiladi. Bunday kvotalarning harakat mexanizmi import tariflaridan foydalangandagi

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

holatni eslatadi, ya’ni import tovarlar taklifi cheklanganda ichki baholar jahon narxiga nisbatan o’sib boradi. Import kvotalari kabi eksport kvotalari ham mamlakat hukumati tomonidan bir tomonlama tartibda yoki manfaatdor hamkor bilan xalqaro kelishuv xulosasi orqali joriy etilishi mumkin. Ular global yoki ma’lum davrda amal qiluvchi mavsumiy bo’lishi mumkin.

Litsenziyalash

Kvotalash jarayoni (boshqacha qilib aytganda, kontingentlash), odatda, litsenziyalash, ya’ni maxsus ro’yxatga kiritilgan resurslar va mahsulotlar bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishga vakolatga ega bo’lgan davlat tashkilotlari (vazirliklar va mahkamalar) tomonidan ruxsat berish bilan birgalikda kuzatiladi.

Tashqi savdoni litsenziyalash turli ko’rinishlarni olishi mumkin: bosh litsenziya, bir martalik litsenziya va avtomatik litsenziya.

Litsenziyalarni joylashtirishning asosiy usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ochiq konkurs — bunda maksimal narx taklif qilgan firma litsenziyaga ega bo’ladi;

yaqqol afzallik tizimi - bunda davlat ana shu sohadagi eng obro’li kompaniyalarga litsenziya

beradi;

harajatlar usuli - bu raqobatchilariga nisbatan kattaroq ishlab chiqarish quvvatlariga va boshqa

resurslarga ega korxonalarga litsenziya berishni anglatadi.

«Ko’ngilli» eksport cheklashlari

Mutaxassislarning fikricha, eksport kvotalarining muhim turlaridan biri ko’ngilli eksport cheklashlari (KECH) hisoblanadi. KECH holatida eksportyor-davlat «ko’ngilli» ravishda boshqa mamlakatga olib chiqadigan mahsuloti hajmini chegaralaydi va hamkor taziyqi ostida minimal import narxlarini o’rnatadi.

Yashirin protektsionizm ko’rinishlari

Alohida mamlakat import yoki eksportni bir tomonlama chegaralashida foydalanadigan yashirin protektsionizm usullarining yuzdan oshiq turi mavjud. Bu usullarni to’rtta katta guruhga ajratish mumkin:

Texnik to’siqlar;

Ichki soliqlar va yig’imlar;

Davlat xaridlari doirasidagi siyosat;

Mahalliy komponentlarning tovar tarkibida bo’lishligiga talablar.

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari tarkibidagi keyingi yirik guruh moliyaviy usullar hisoblanadi va ular o'z navbatida quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- subsidiyalar;
- eksport kreditlari;
- demping.

Subsidiyalar— milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va importni bilvosita kamsitishga qaratilgan davlat byudjetidan ajratiladigan pulli to'lovlar. Subsidiyalar import tovarlar bilan raqobatga kirishayotgan va eksport uchun mo'l- jallangan tovarlar ishlab chiqaruvchilarga berilishi mumkin. Birinchi holatda u ichki subsidiya deb, ikkinchi holatda esa eksport subsidiyasi, deb ataladi.

Subsidiyalar yordamida korxonalarni himoya qilish va eksportni rag'batlanti- rishning salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

- korxonalarning subsidiyalardan foydalanishga ko'nikib qolishi faoliyat samara-dorligi va raqobatbardoshligini oshirishga rag'batlantirmaydi;
- subsidiyalarning davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi aholi zimmasiga tushadigan soliq yukining ortishini bildiradi;
- eksport subsidiyalarining qo'llanilishi ichki bozorda mazkur tovarlarning kamo-madi va narxlarning oshishiga olib keladi;
- subsidiyalarning qo'llanilishi savdo urushlarining avj olishiga shart-sharoit yaratadi.

Eksport kreditlari tashqi savdo siyosatining moliyaviy usuli bo'lib, milliy fir-malarning eksport salohiyatini rivojlantirishni davlat tomondan moliyaviy rag'bat- lantirishni nazarda tutadi.

Eksport kreditlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- milliy eksportyorlarga subsidiyalashgan kreditlar berish — davlat banklari tomonidan bozor stavkasidan past stavkalarda kreditlar ajratish;
- kredit bergan mamlakat tovarini sotib olish sharti bilan xorijiy importyorlarga davlat kreditlarini berish;
- milliy eksportyorlarni eksport risklaridan sug'urtalash. Eksport kreditlari qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Eksport kreditlari bo'yicha eng yirik uyushmalardan biri IHTT doirasida eksportni kreditlash bo'yicha hukumat va agentliklar vakillaridan iborat guruh — Eksport krediti guruhi hisoblandi. Bu guruh ikki yil va undan ortiq muddatga berilgan eksport kreditlarini tartibga soladi. Ikkinchi yirik tashkilot kreditlar va investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha xalqaro ittifoq — Bern itti- foqi hisoblanadi.

Ba'zi hollarda eksport kreditlari boshqa davlatlarga tashqi yordam berish shak- li sifatida talqin etiladi.


Demping — tovarni tashqi bozorga mamlakatda mavjud normal bahoga qara- ganda past baholarda eksportga chiqarish. Tashqi savdo amaliyotida dempingning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

- sporadik demping — tashqi bozorga ortiqcha tovar zaxiralarini past baholarda epizodik sotish;
- oldindan o'ylangan yoki ataylab qilingan demping — bozordagi raqibni siqib chiqarish va keyinchalik monopol baho o'rnatish maqsadida eksport baholari- ni vaqtinchalik pasaytirish;
- doimiy demping — doimiy ravishda tovarlarning eksport bahosini normal bahoga nisbatan past baholarda sotish;
- teskari demping — tovarlar eksport bahosining mamlakat ichki bozoridagi baholarga nisbatan oshib ketishi.
- o'zaro demping — ikkita mamlakatning bir xil tovarlar bo'yicha past baholarda o'zaro savdoga kirishishi.

Dempingdan, eng avvalo, davriy pasayishlar va ichki talab kamayganda, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish davrida foydalaniladi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Savdo siyosati doirasida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy, hududiy va boshqa masalalar uzviy boglanib ketadi. Xalqaro iqtisodiyot, asosan, savdo siyosati choralarini qo'llashning iqtisodiy shart-sharoitlarini va oqibatlarini o'rganib, huduiy va tashkiliy masalalarni ixtisoslashgan fan tarmoqlari, chunonchi, xalqaro savdo huquqi, xalqaro marketing kabilarning ko'rib chiqishi uchun qoldiradi.



1.1

Xalqaro savdoning davlat boshqaruvi instrumentallari o'z xususiyatiga ko'ra tarif-bojxona tarifini qo'llashga asoslangan va notarif- boshqa barcha usullarga bo'linadi. Boshqaruvning notarif usullari miqdoriy va yashirin proteksionizm usullariga bo'linadi. Savdo siyosatining alohida instrumentlari ko'pincha importni cheklash yoki eksportni ragbatlantirish zarurati tugilganda qo'llaniladi. Savdo siyosati dastaklarning tashnifi 1.1. jadvalda aks etgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 25.04.1996.
2. "Xorijiy investisiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 30.04.1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. "O'zbekiston 21 asrga intilmoqda" T. O'zbekiston, 1999.
5. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Ikkinchi chakirik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasidagi ma'ruza, 2002 yil 29 avgust.
6. Strovskiy L. Mejdunarodnыye ekonomicheskiye otnosheniya. Yuniti-Dana. 2003.
7. Dyumulen I. Vsemirnaya torgovaya organizasiya. Ekonomika. 2003.
8. Pogorleskiy A.I. Ekonomika zarubejnых stran. S.-P., 2003.

WORDLY KNOWLEDGE